

## OLIY TA'LIM MUASSASALARINI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH

**Xolmurzayeva Dilorom**  
*Ta'lismuassasalarining boshqaruvi magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlanish masalalari keltirilgan. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'naliishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar haqida fikrlar o'rinn olgan

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, oliy ta'lim, tizim, bakalavr, magistratura, xalqaro hamkorlik, raqobatbardosh kadrlar, ilmiy va innovatsion faoliyat.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkonini tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'laymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi"

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta'lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzlusiz ta'lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Manbalarga ko'ra, ta'larning uzlusizligi to'g'risidagi ilk g'oyalarni ba'zi bir G'arb tadqiqotchilari hatto Suqrot, Aflatun, Aristotel va Senekanning insonning doimiy ravishda ma'naviy takomillashuvi haqidagi diniy-falsafiy tasavvurlarida va ilmiy asarlardan hamda bunga o'xshash g'oyalarni muqaddas islom dinimizda ham uchratishimiz mumkin. Oliy ta'lim g'oyasining paydo bo'lishi o'z navbatida, bir tomonidan pedagogik konsepsiya sifatida, boshqa tomonidan esa, amaliyotning natijasida paydo bo'lgan.

Oliy ta'lim — turli oliy maktablarda yuqori, oliy malakali mutaxassislar tayyorlash. Oliy ta'lim oliy o'quv yurtlari tomonidan xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli sohalari bo'yicha oliy malakali mutaxassis bo'lishni istagan va tegishli talablarni bajargan o'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limini olgan kishilarga ilmiy-nazariy bilim berish hamda muayyan ko'nikmalar shakllantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.



Oliy ta'lif jarayonida talabaga oliy ma'lumot beriladi. Oliy ma'lumot tushunchasi muayyan ixtisoslik bo'yicha mutaxassis oldida turgan nazariy va amaliy muammolarni mustaqil hal qilish imkonini beradigan darajadagi bilim va malakalar yig'indisini anglatadi.

- ✓ Oliy ta'lif yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi;
- ✓ Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash, oliy o'quv yurtlarida umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi;
- ✓ Oliy ta'lif bakalavriat va magistratura bosqichiga ega;
- ✓ Bakalavriat oliy ta'lif yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan o'qish muddati kamida 4 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdi;
- ✓ Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida davom etadigan oliy ta'limdi.

#### **O'zbekiston oliy ta'lif tizimi attestatsiyaning ikki bosqichini nazarda tutadi:**

1. Bakalavriat tayanch oliy ta'lif bo'lib, turli yo'nalishlar bo'yicha asosiy ko'nikmalar va yetarli bilimlarni beradi. Treningning davomiyligi kamida 4 yil. Dastur yakunida davlat komissiyasi bitiruvchilarga tayyorlash profiliغا muvofiq "bakalavr" malakasini beradi va belgilangan namunadagi diplom beradi.
2. Magistratura – tanlagan mutaxassislik bo'yicha amaliy va fundamental nazariy bilimlarni rivojlantirishni nazarda tutuvchi oliy ta'lif. O'qish muddati kamida 2 yil. O'qishni tugatgandan so'ng, bitiruvchilar ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha diplom va magistr darajasini olishadi.

Ikkala darajali diplomlar o'z egalariga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki boshqa ta'lif muassasalarida o'qishni davom ettirish imkonini beradi. Eslatib o'tamiz, YuNESKO va DGP Research & Consulting konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda jalb etilgan xalqaro ekspertlar guruhi 2017-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston ta'lif tizimini keng qamrovli o'rganishdi. Tahlil natijalari bo'yicha nazariya va amaliyot yaxlitligini yanada ta'minlash, ta'lif sifatini monitoring qilish mexanizmini takomillashtirish, xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish zarurligi yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lif tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta'lif muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lif muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.





Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari uchun chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lif tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lif tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz mактабдан qanchalik bilimli bo'lib chиqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkonи tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi mактабдан boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi" [1].

Ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lif tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrلaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasi" sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Konseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lif tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lif sifatini oshirish, raqamlı texnologiyalar va ta'lif platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lif jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

O'zbekistonda oliy ta'lif tizimini isloh qilish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lif tizimida xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ikki bosqichli kadrlar tayyorlash (bakalavr va magistratura) shakllantirildi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lifning ikki bosqichli tizimi ham joriy etildi. Shunga qaramay, ushbu sohada muayyan nomutanosiblik va muammolar mavjud. Ular quyidagi nomutanosibliklarda ifodalanadi: oliy o'quv yurtlari talabalarini hududlar bo'yicha



taqsimlashda; ular joylashgan hududlar iqtisodiyotining ta'lif va ixtisoslashuv yo'nalishlaridagi nomutanosiblik; ta'lif yo'nalishlari va mintaqaviy rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy xususiyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik va boshqalar.[3]

Sohani tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlash mazmunini xalqaro andozalar darajasida tubdan qayta ko'rib chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Shu bilan birga, 2017-2021-yillarda oliy ta'lif tizimini kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi, unda oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriylar hamda zamonaviy axborot vositalari bilan jihozlash chora-tadbirlari belgilandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda oliy ta'lif jamiyat hayotining turli sohalari va iqtisodiyot tarmoqlari – ilmiy, iqtisodiy, texnik va boshqa sohalar uchun malakali mutaxassislar tayyorlaydi. O'quv jarayoni bilim va egallagan ko'nikmalarni tizimlashtiradi, talabalarni zamonaviy ilmiy fikr va texnologiya yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda tanlagan mutaxassislik vektori bo'yicha nazariy va amaliy muammolarni hal qilishga qaratadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 56 b

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. [Elektron resurs]. Kirish rejimi: //www. lex.uz/ (kirish sanasi: 2019-yil 28-dekabr).

3. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son qaroriga 1-ilova

4. Saidova D.N., Durxodjaev Sh., Botirov J., Rasulova D.G. O'zbekistonda ta'lif va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalalari. // Qishloq xo'jaligi ta'limi va fanining strategik vazifalari. Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami 2015 yil 26 fevral, Yekaterinburg. UrGAU.2015. 364-367-betlar.

